



XO'JALIK YURITUVCHI KORXONALARNING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLİYAVIY RAG'BATLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING O'RNI

PhD, dots. **Baxriddinov Nodirbek**
Namangan davlat texnika universiteti
ORCID: 0000-0002-3765-5778
nbahriddinov@lincolnucsf.edu

Annotatsiya. Maqolada moliyaviy rag'batlantirishning xorij tajribasi yordamida sanoat korxonalarining innovatsion faoliyati ko'rib chiqilgan. Mazkur masala bo'yicha turli xil xorij davlatlari tajribasi o'rganilgan va ularni sanoat korxonalarida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan va baholangan. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirishning xorij tajribasidan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, rag'batlantirish, sanoat korxonalari, moliyaviy rag'bat, samaradorlik, xorijiy tajriba, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, globallashuv, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy infratuzilma.

РОЛЬ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ФИНАНСОВОМ СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ

PhD, доц. **Бахриддинов Нодирбек**
Наманганский государственный технический университет

Аннотация. В статье рассматривается инновационная деятельность промышленных предприятий с использованием зарубежного опыта финансового стимулирования. Изучен опыт различных зарубежных стран по данному вопросу, выявлены и оценены возможности его использования на промышленных предприятиях. Разработаны предложения по использованию зарубежного опыта финансового стимулирования инновационной деятельности.

Ключевые слова: инновационная активность, стимулирование, промышленные предприятия, финансовое стимулирование, эффективность, зарубежный опыт, социально-экономическое развитие, глобализация, экономический рост, социальная инфраструктура.

THE ROLE OF FOREIGN EXPERIENCE IN FINANCIAL PROMOTION OF INNOVATIVE ACTIVITIES OF ENTERPRISES

PhD, assoc. prof. **Bahriddinov Nodirbek**
Namangan State Technical University

Abstract. The article examines the innovative activity of industrial enterprises using foreign experience in financial incentives. The experience of various foreign countries on this issue is studied and the possibilities of their use in industrial enterprises are identified and assessed. Proposals are developed on the use of foreign experience in financial incentives for innovative activity.

Keywords: innovative activity, incentives, industrial enterprises, financial incentives, efficiency, foreign experience, socio-economic development, globalization, economic growth, social infrastructure.

Kirish.

Ilmiy-texnologik va innovatsion rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olish Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat innovatsiya siyosatini shakllantirishning muhim elementi hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- globallashuv va raqobat kurashining kuchayayotganligi;
- texnologiyalarning takrorlanishini oldini olish maqsadida milliy innovatsion tizimlarni integratsiyalashuvini ta'minlashning zarurligi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti tufayli bir qator xorijiy davlatlarda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning samarali iqtisodiy mexanizmlari yaratildi. Masalan, AQSh va Yaponiya rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda innovatsion faoliyatning o'sishi bosqichma bosqich amalga oshirildi.

Yevropa Ittifoqi va Kanada davlatida barcha ilmiy muammolar davlat idoralarining faol ishtirokida hal etiladi. Ular yangi turdagi ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish orqali, soliq stavkalarini pasaytirishga, sug'urta kompaniyalarini jalb etishga, imtiyozli kreditlar olishga, jismoniy shaxslar tomonidan investitsiyalarni yo'naltirishga erishdilar.

Adabiyotlar sharhi.

Ilmiy izlanishlar davomida yuqorida ta'kidlangan innovatsion faoliyatga oid dastlab keng ma'noda «Innovatsiya» atamasi birinchi marta avstriyalik iqtisodchi Shumpeter (1982) tomonidan 1912 yilda «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» asarida taklif etilgan. Innovatsion nazariyaning eng asosiy qoidalari ham ushbu asarda to'la asoslab berilgan.

Amerikalik boshqaruv bo'yicha mutaxassis Druker (1993) innovatsiyaga nisbatan yanada kengroq yondashuvni chiqdi, ya'ni «Yangilik kiritish – bu murakkab tizim bo'lib, uning yordamida g'oyalar va ixtirolar birinchi marta tijorat voqeligiga aylanadi. Bu– mahsulot yoki xizmat turlarini bozorga chiqarish, iqtisodiyotga muvaffaqiyatli joriy etish, demakdir» ishlab chiqdi.

Rus iqtisodchilaridan Anchishkinning (1986) fikriga ko'ra «innovatsiya», «yangilik kiritish» atamaları faqat texnik-texnologik o'zgarishlar bilan chegaralanishi mumkin emas. U ushbu atamaga keng ijtimoiy ma'no berib, yangiliklarni jamiyatni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida ko'rib chiqqan va texnik-texnologik yangiliklar muayyan iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqargan holda sotish bozori uchun kurashishga ko'maklashib, raqobat muhitini o'zgartiradi va bu bilan ijtimoiy rivojlanishga yordam beradi, deydi.

Yana bir ta'rif quyidagicha: «innovatsiya – bu jamiyat taraqqiyotining ta'siri ostida inson o'zgaruvchan ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun yangilik kiritish, yangiliklarni (yangi amaliy vositani) yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish jarayoni» deb ifodalanadi. Utkin (1996) esa innovatsiya (yangilik kiritish)ni amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot yoki kashfiyot natijasida ishlab chiqarishga joriy etilgan, avvalgisidan sifat jihatdan farq qiluvchi ob'yekt sifatida ta'riflaydi.

Umuman olganda, keltirib o'tilgan mutaxassis olimlar tomonidan innovatsiya va innovatsion faoliyati ustida ish olib borilgan bo'lib, iqtisodiyot real tarmoqlarini innovatsion rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali boshqarish yo'llari mavzusi doirasida tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy yondashuvlar o'rganilib, mushohada qilingan. Tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish uchun yo'nalish tanlab olingan. Birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumot manbalarini chuqur o'rganshi va asoslash uchun tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

AQSh va Angliya davlatlari ilmiy innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmidan faol foydalanish natijasida, dunyo miqiyosida yetakchi xisoblanadi.

Jahon rivojlangan davlatlari faoliyatida "Spin off" transferi mexanizmlari: – texnik va boshqaruv tajribasini uzatish (transfer of technology and management skill), ilmiy va muhandislik tajribalarini sanoatda foydalanish imkoniyati (transferability of scientific and engineering skills) uchun, ilmiy-texnik transfer, yoki ilmiy-texnik yutuqlar transferi, texnologik transfer, yoki texnologiyalar, innovatsiyalar transferi kabi tushunchalar amaliyotda qo'llab kelinadi.

Xorijlik iqtisodchi olimlarning tahlillariga ko'ra "Spin off" transfer mexanizmlari jahonning AQSh va Buyuk Britaniya davlatlarida eng ko'p rivoj topgan texnologiyalar sifatida tanilgan degan xulosaga kelingan (R Blog - RoboForex, 2018).

Xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib kelgusida, ushbu "Spin off" loyihasini respublikamiz iqtisodiga yo'naltirilsa foydadan holi bo'lmaydi.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat va korxonalarning hissali ishtirok etishini ta'minlash, olinadigan dividendlarga nisbatan past darajadagi soliq stavkalarini qo'llash innovatsion loyihani investitsiyalash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Taraqqiy etgan boshqa mamlakatlarda ham innovatsion investitsiyalashni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlaridan keng foydalaniladi.

Davlatlar kesimida ko'rib chiqadigan bo'lsak, mazkur soliq imtiyozlari quyidagi shakllarda amaliyotga joriy qilingan:

- yaponiyada yangi texnika va texnologiyani tadqiq qilish va ishlab chiqish maqsadida ishlatiladigan uskunaga investitsiya qilayotgan sanoat kompaniyalariga mazkur investitsiyalarning 7 foizi miqdorida foyda solig'idan chegirma beriladi;

- angliya kompaniyalarga, yangi mashina va uskunalarni ishlab chiqarishga joriy etganda, birinchi yilda soliq imtiyozlari beriladi;

- irlandiyada yangi uskunalarni ekspluatatsiya qilishning birinchi yilida soliq imtiyozi 100 foizni tashkil etadi (Pavlov, 2009).

- fransiya va Germaniyada innovatsion investitsiyalashni moliyaviy rahbatlantirishda soliq imtiyozlari emas, balki amortizatsiya siyosati muhim tutadi. Mazkur mamlakatlarda kompaniyalarga yangi texnika va uskunalarga birinchi yilda hisoblangan amortizatsiyalarni to'liq balansdan chiqarish huquqi berilgan.

Yevropa Ittifoqida innovatsiyalarni investitsiyalash jarayoniga salbiy ta'sir etayotgan omillardan biri integratsiyaga qarshi jarayonlarning chuqurlashayotganligi hisoblanadi. Bu esa, ko'pchilik mutaxassislar va siyosatchilarning fikriga ko'ra, Yevropa Ittifoqi chegarasining sharqqa qarab kengayganligi bilan izohlanadi.

Innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish va rag'batlantirishda asosiy ishtirokchi sifatida davlat byudjetini roli, yaratilayotgan har bir g'oya, taklif va loyixalarni to'g'ridan to'g'ri mablag' bilan ta'minlash vazifasi turadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga ko'ra ularning har birida innovatsiyalarni moliyalashtirish va rag'batlantirib borishda davlatning roli uning rivojlanishi darajasiga va eng muhimi innovatsion siyosatning motivatsiyasiga bog'liq bo'lib, o'ziga hos turda namoyon bo'ladi. Bunga misol tariqasida dunyo miqiyosida rivojlangan va yuqori rivojlanayotgan mamlakatlarni keltirib o'tish mumkin. Masalan, AQSh uchun asosiy xarakat dunyo miqiyosidagi global harbiy siyosat va iqtisodiy gegamonlikni saqlab qolish. Yevropa mamlakatlari uchun ijtimoiy barqarorlik va turmush sifatini yaxshilash. Xitoy uchun barqaror o'sish va iqtisodiy yetakchilikka erishish. Hindiston, Malaziya uchun esa, qashshoqlik va ichki muammolarni engish, barqarorlikka erishish. Koreya respublikasi (Janubiy Koreya) va Singapur uchun makrodarajada mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish turadi (Seleznyov, 2013).

Shunisi xarakterliki, taraqqiy etgan mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot xarajatlarning asosiy qismini davlat qoplaydi. Masalan, Fransiya 2019-yilning 1 yanvaridan boshlab, summasi 100

mln. evrogacha bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarining 30 foizi, 100 mln. yevrodan ortiq bo'lganlarining 50 foizi davlat tomonidan qoplangan (Zaxarova, 2019).

AQShda ilm-fan xarajatlarining qariyb yarmi, Buyuk Britaniyada 50 foizdan ortiq qismi, Germaniyada 40 foizdan ortig'i davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

1-jadval.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tashkilotiga a'zo mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga qilinadigan xarajatlari (OECD, 2021) (YAIMga nisbatan %da)

	Davlatlar	Xarajatlarning rejalashtirilgan darajasi	Erishiladigan yil	Xarajatlarning haqiqatdagi darajasi
1.	Avstriya	3,0	2020	2,45
2.	Belgiya	3,0	2020	1,83
3.	Chexiya	2,1	2020	1,54
4.	Daniya	3,0	2020	2,43
5.	Finlyandiya	4,0	2021	3,45
6.	Fransiya	3,0	2022	2,11
7.	Germaniya	3,0	2021	2,53
8.	Gretsiya	1,5	2019	0,57
9.	Vengriya	1,4	2020	1,00
10.	Irlandiya	2,5	2022	1,32
11.	Yaponiya	4,0	2020	3,39
12.	Janubiy Koreya	5,0	2022	3,23
13.	Niderlandiya	3,0	2020	1,67
14.	Norvegiya	3,0	2020	1,52
15.	Polsha	2,2	2020	0,56
16.	Portugaliya	1,8	2020	0,83
17.	Ispaniya	2,2	2021	1,20
18.	Shvetsiya	4,0	2020	3,73
19.	Buyuk Britaniya	2,5	2019	1,78
20.	Yevropa Ittifoqi	3,0	2020	1,76

1-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga qilingan xarajatlarning yuqori darajasi Shvetsiya, Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Avstriya va Daniyada kuzatilmoqda.

Mazkur mamlakatlar 2019-2022-yillarda ushbu xarajatlar darajasini yanada oshirish maqsadini ko'zlashgan. Xususan, Shvetsiyada 2021-yilning oxiriga kelib, mazkur ko'rsatkichning amaldagi darajasi 4 foizga yetkazish kutilgan. Avstriyada esa, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 3 foizga yetgani ma'lum bo'ldi. Polsha, Gretsiya va Portugaliyada ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga qilingan xarajatlar darajasi past. Bu esa, ushbu mamlakatlar iqtisodiyotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashga nojo'ya ta'sir etadi.

O'tish iqtisodiyoti jarayonlari mavjud davlatlarda iqtisodiyotni innovatsiyalashish darajasi taraqqiy etgan mamlakatlarnikiga nisbatan ancha past. Masalan, Rossiyada ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga qilingan xarajatlarning YAIMga nisbatan salmog'i 1,12 foizni tashkil etadi va ushbu ko'rsatkich bo'yicha dunyoda 30-o'rinni egallaydi. Bitta olimga to'g'ri keladigan ilm-fan xarajatlari 19 ming AQSh dollarini tashkil qiladi. Holbuki, ushbu ko'rsatkich Germaniyada 131 ming dollarni, Janubiy Koreyada esa, 147 ming dollarni tashkil qiladi (Zaxarova, 2020).

Asosiy kapitalni yangilash innovatsion rivojlanishning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Rossiyada asosiy fondlarning 50 foizdan ortiq qismi jismonan eskirgan. Ayniqsa, qishloq xo'jalik mashinasozligi va qurilish materiallari sanoatida innovatsion faollik darajasi

past. Rossiya korxonalari tomonidan jo'natilgan mahsulotlarning umumiy hajmida yangi mahsulotlarning salmog'i atigi 12 foizni tashkil qilmoqda (Pavlov, 2021).

Xorijiy innovatsion investitsiyalarni jalb etish respublika iqtisodiyoti tarmoqlarida, uning subyektlarida ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirish, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llashni jahon xo'jaliklariga bo'lgan talab asosida amalga oshirishni ta'minlaydi. Xorijiy mamlakatlarda korxona amortizatsiya mablag'lari innovatsion investitsiyalashtirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Uning investitsiyalashtirishdagi hissasi doimiy ravishda o'sib borishining asosiy sababi ishlab chiqarish fondlari va texnologiyalari qisqa muddatlar ichida yangilanib turishidir. Bu yangilanish davri 4-7 yillarni tashkil etadi. Natijada, amortizatsiyaning yillik darajasi oshib borishi hisobiga ishlab chiqarish fondlarining amortizatsiya orqali qoplanish muddati qisqarib bormoqda.

Jumladan, AQShda 60-yillarda amortizatsiya mablag'larini umumiy kapital qo'yilmalar hissasidagi hajmi 50-58 foizga ko'paygan bo'lsa, keyingi 15-20-yillar ichida 70-75 foizga, Germaniyada esa 30-37 foizdan 55-60 foizga, Yaponiyada 32 foizdan 35 foizga ko'paygan bo'lsa, keyingi davrlarda bu ko'rsatkich 45-50 foizni tashkil etgan.

Xorijiy mamlakatlarda umumiy moliyalashtirishda shakllanayotgan kapital mablag'larning 60-70 foizi amortizatsiya mablag'iga va 30-40 foizi korxona foydasiga to'g'ri keladi.

Amortizatsiya fondlarini shakllantirish jarayonida Rossiya Federatsiyasi tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Unga asosan tezlashtirilgan shaklda amortizatsiya mablag'laridan foydalanishni tashkil etish yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Rossiyada amortizatsiyaga tortiluvchi mulklardan foydalanish muddatlariga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi (2-jadval).

2-jadval.

**Foydalanish muddatlariga qarab amortizatsiyaga tortiluvchi mulklar
(Slepneva va Yarkin, 2020)**

Guruh	Foydalanish muddatlari belgilangan asosiy mablag'lar (yil hisobida)
1	1 - 2
2	2 - 3
3	3 - 5
4	5 - 7
5	7 - 10
6	10 - 15
7	15 - 20
8	20 - 25
9	25 - 30
10	30 yildan ortiq

Mamlakatda davlat tomonidan yangi mahsulotni ishlab chiqarishni ta'minlovchi investitsiya va innovatsiya loyihalari tan olinsa, unga sarflangan xarajatlarning 50 foizigacha davlat tomonidan qoplanadi. Ishlab chiqarish xomashyo resurslari bilan bog'lanmagan tashqi savdo uchun mahsulot ishlab chiqarishning tashkil topishiga 40 foizgacha, yoki xorijiy mahsulotlarni o'rnini qoplaydigan va tashqi bozorda unga talab bo'lgan investitsion loyihalarni joriy etish maqsadida 30 foizgacha va ichki iste'mol bozorida talabgor mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlovchi loyihalarni amalga oshirish uchun 20 foizgacha davlat investitsion mablag' hisobidan yordam beradi. Davlat tomonidan ikki yilga belgilangan investitsion loyihalar, agar loyiha egalarining investitsion loyiha umumiy qiymatini 20 foizgacha xususiy mablag'lari mavjud bo'lsa, davlatning bu loyihalarni amalga oshirish uchun 20-50 foizgacha moliyaviy yordam berishi belgilangan.

Jahon tajribasini hisobga olgan holda, O'zbekistonda innovatsion faoliyatini moliyaviy rag'batlantirishni samarali amalga oshirish uchun quyidagi muammolarni hal etishga e'tibor berish zarur:

- respublika milliy iqtisodiyotining istiqbolli rivojlanishini takomillashtirish iqtisodiy siyosatga asosan uning strategiyasini ishlab chiqish;
- milliy iqtisodiyot tarmoqlarini samarali taraqqiy etish uchun kerak bo'lgan innovatsion investitsiya mablag'larini jalb etish bo'yicha innovatsion investitsiya siyosatini ishlab chiqish;
- xorijiy innovatsiya mablag'larini jalb etishni respublika iqtisodiy mintaqalari xususiyatlari va tabiiy resurslaridan kelib chiqqan holda innovatsion faoliyatini rivojlantirish, uning jozibadorlik darajasini oshirish;
- innovatsion ilmiy faoliyatni rivojlantirish, ishlab chiqarishda texnologik yo'nalishda raqobatbardosh yangiliklarni yaratish uchun innovatsion tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi subyektlarni zarur bo'lgan ilmiy xodimlar va yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash;
- innovatsion faoliyatni investitsiyalashtirishda aholi jamg'armalaridan foydalanishni rivojlantirish lozim. Buning uchun esa qo'yilmalarning davlat banklarida to'planishini rag'batlantirib borish yuzasidan, birinchidan, bank qo'yilmalari uchun to'lanadigan foiz darajalarini boshqatdan ko'rib chiqish lozim bo'lsa; ikkinchidan, maxsus innovatsion investitsiyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan qimmatli qog'ozlar zayomlarni chiqarish zarur; uchinchidan, innovatsion yangiliklar asosida ishlab chiqarish subyektlarining oladigan foydalari darajasining o'sishidan innovatsion investorlar manfaatdorligini oshirish zarur.

Xorijiy davlatlar va xususiy investorlarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi innovatsion faoliyat yo'nalishlarida qatnashishlari maqsadga muvofiqdir:

- ishlab chiqarish jarayonini bozor talablari asosida rivojlantirishni tashkil etishda;
- birgalikda qo'shma korxonalar, ilmiy markazlar tashkil etishda;
- innovatsion faoliyatni rivojlantirishni kreditlashtirishda;
- lizing xizmatlarini tashkil etishda;
- milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida kerak bo'lgan milliy mutaxassislarni va kasbiy mahoratga ega bo'lgan xodimlarni tayyorlashda;
- ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va unumdorligi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish texnologiyalarini milliy iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga qo'llashda.

Ishlab chiqarish subyektlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan holda iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlovchi tarmoqlar yo'nalishlarida amalga oshirish, mahalliy resurslar zaxiralari asosida ishlab chiqarish tarmoqlarining tarkibiy tuzilishini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Amerikalik iqtisodchi Druker (2000) o'z vaqtida shunday degan edi, - «Har qanday biznes ikki funksiyaga, investitsiya va innovatsiyaga bog'liqdir».

Xulosa va takliflar.

Demak, yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- innovatsiyalarni investitsiyalash mamlakat iqtisodiyotining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi;
- ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga sarflangan xarajatlar darajasi iqtisodiyotning innovatsiyalashish darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi va uning YAIMga nisbatan darajasining 3 foizdan kam bo'lmasligi ijobiy holat hisoblanadi;
- innovatsiyalarni investitsiyalashning davlat orqali nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat va korxonalarining hissali ishtirok etishini ta'minlash hamda davlat tomonidan uning aniq kafolatlash tizimini ishlab chiqish, olinadigan dividendlarga nisbatan past darajadagi soliq stavkalarini qo'llash, yangi uskunalar va texnologiyalarga qilingan investitsiyalarga nisbatan soliq chegirmalarini qo'llash, innovatsion loyihalarni investitsiyalash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

- respublika milliy iqtisodiyoti tarmoqlari o'rtasida zarur bo'lgan nisbatlarni o'rnatish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash xorijiy investitsiya mablag'larini milliy iqtisodiyotga jalb etish darajasiga va undan innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun ajratilgan innovatsion investitsiya mablag'lari miqdoriga bog'liq;

- milliy iqtisodiyotda innovatsion investitsiyalashtirish jarayonining rivojlanishi zarur bo'lgan ilmiy xodimlar va yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq;

- iqtisodiyotida o'tish jarayonlari mavjud mamlakatlarda innovatsiyalarni investitsiyalash darajasi nisbatan past bo'lib, iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа/References:

OECD (2021) *Science, Technology And Industry Outlook 2021*. OECD.-p.64.

R Blog - RoboForex. (2018). *Blog RoboForex for Traders: Trading News, Analysis, Forecasts -forex and stocks*. R-Blog. [online] Available at: <https://blog roboforex.com/ru/blog/2021/10/22/kompaniya-provudit-spin-off-cto->.

Statistik byulleten (n.d.) "O'zbekiston respublikasi ilmiy texnikaviy salohiyati va innovatsiyalar asosiy ko'rsatkichlari" statistik byulleteni.

Statistika qo'mitasi (2020) *O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qomitasi "O'zbekistonda ilm- fan va innovatsion faoliyat"*. Toshkent. b.82.

Utkin E.A., Morozova G.I. (1996) *Innovatsionniy menendjment*. -M.: AKALIS, - 208 s.

Анчишкин А. И. (1986) *Наука - техника - экономика*. - М.: Экономика, -35 с.

Друкер П.Ф. (2000) *Практика менеджмента*.-Санкт-Петербург. Москва, -263 с.

Друкер П. (1993) *Новый бизнес*. - М.: Экономика.

Захарова Н. (2019) *Координация инновационных процессов в Европейском Союзе*//Экономист.-Москва, №7.-65с.

Захарова Н. (2020) *Координация инновационных процессов в Европейском Союзе*//Экономист.-Москва, -№7.-58с.

Павлов К. (2009) *Инновации интенсивного и экстенсивного типа*//Экономист.-Москва,-№7.-47с.

Павлов К. (2021) *Инновации интенсивного и экстенсивного типа*//Экономист.-Москва, №7.-45с.

Селезнёв П.С. (2013) *Инновационная политика "незападных" стран в начале ххi столетия: поиск приоритетов модернизации*, -М,: «Финансовый университет», с. 11.

Слепнева Т.А., Яркин Е.В. (2020) *Инвестиции: Учебное пособие*. -М.: ИНФРА-М, 61 с.

Шумпетер Й. (1982) *«Теория экономического развития»*. - М., Прогресс, -455с.